



**“O‘ZTRANSGAZ” AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUG‘I**

2026 yil 18 iyun

93-son

“O‘ztransgaz” AJda ISO 37001:2016 va O‘z DSt 37001:2019 talablariga muvofiq korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etish bo‘yicha hujjatlar majmuasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2025-yil 15-dekabrda 200-son buyruqqa o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

“O‘ztransgaz” AJ Kuzatuv kengashining 2026-yilga mo‘ljallangan ish rejasiga asosan, Kuzatuv kengashining 2026-yil 12-martdagi navbatdagi majlisi bayoni bilan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati” hamda “O‘ztransgaz” AJ Komplaens-nazorati bo‘limi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi sababli, “O‘ztransgaz” AJda ISO 37001:2016 va O‘z DSt 37001:2019 talablariga muvofiq korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etish bo‘yicha hujjatlar majmuasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2025-yil 15-dekabrda 200-son buyruqqa tegishli o‘zgartirishlar kiritish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. “O‘ztransgaz” AJ Kuzatuv kengashining 2026-yilga mo‘ljallangan ish rejasiga asosan Kuzatuv kengashining 2026-yil 12-martdagi navbatdagi majlisi bayoni bilan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati” hamda “O‘ztransgaz” AJ Komplaens-nazorati bo‘limi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. “O‘ztransgaz” AJda ISO 37001:2016 va O‘z DSt 37001:2019 talablariga muvofiq korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etish bo‘yicha hujjatlar majmuasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2025-yil 15-dekabrda 200-son buyrug‘inin:

– 1-ilovasiga asosan tasdiqlangan “O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosat, 2-ilovasiga asosan tasdiqlangan Komplayens-nazorat bo‘limining faoliyati tartibini belgilovchi Nizom o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

– 11-ilovaga muvofiq tasdiqlangan “O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalariga aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish tartibini belgilovchi Reglament yangi tahrirda tasdiqlansin;

3. Buyruqning qolgan bandlari o‘zgarishsiz qoldirilsin.

4. Jamiyatning tarkibiy tuzilmalari tomonidan mazkur buyruq ijro uchun qabul qilinsin hamda amaldagi nizom va reglament talablaridan kelib chiqib, joylardagi komplayens-nazorat bo'linmalari nizomlari hamda reglamenti qayta ishlab chiqilsin.

5. Devonxona (Kamilova) mazkur buyruqni Jamiyatning barcha departamentlari, mustaqil bo'limlari hamda tarkibiy tuzilmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi v.b.



A. Isakov

ELG6759

ELG6759

ELG6759

ELG6759

ELG6759

ELG6759